

**BOLALARING O`ZLASHTIRISH JARAYONIDA TA`LIM  
METODLARIDAN FOYDALANISH****ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В ПРОЦЕССЕ  
ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ****USE OF EDUCATIONAL METHODS IN THE LEARNING PROCESS OF  
CHILDREN**

*Esemuratova Gulbanu Sultanbek qizi*

*Qoraqalpoq Davlat Universiteti*

*Amaliy Psixologiya 3-kurs talabasi*

*[esemuratovagulbanu@gmail.com](mailto:esemuratovagulbanu@gmail.com)*

+998934861835

*Saparova Eldora Tajimuratovna*

*Qoraqalpoq Davlat Universiteti*

*Amaliy Psixologiya 3-kurs talabasi*

*[saparovaeldora@gmail.com](mailto:saparovaeldora@gmail.com)*

+998885072512

*Esbosinova Sarbinaz Muratbaevna*

*Qoraqalpoq Davlat Universiteti*

*Amaliy Psixologiya 1-kurs talabasi*

*[sarbinazesbosinova@gmail.com](mailto:sarbinazesbosinova@gmail.com)*

+998937079963

**Annotaciya:** Ushbu maqlolada bolalar yangi bilimlarni olisjh jarayonida metodlardan foydalanish qanday darajada ahamiyatli ekanligi haqida so`z yuritilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о том, как важно использовать методы в процессе приобретения детьми новых знаний.

**Annotation:** This article talks about how important it is to use methods in the process of acquiring new knowledge by children.

**Kalit so`zlar:** Ta`lim metodlari, programmalashtirilgan ta`lim, keyslar, metodlar.

**Ключевые слова:** Методика обучения, программированное обучение, кейсы, методы.

**Key words:** Educational methods, programmed education, cases, methods.

Ta`limning faol metodlari sifatida uch gumh metodlar ajratiladi: dasturlashtirilgan ta`lim metodlari, muammoli ta`lim metodlari, interaktiv ta`lim metodlari. Mazkur metodlar ta`lim berishning an'anaviy metodlaridagi kamchiliklami bartaraf etish maqsadida ishlab chiqilgan. Dasturlashtirilgan ta`limda o'quv materiali kichik, oson o'zlashtiriladigan qismlarga ajratilib beriladi. o'quvchilar o'quv materialini qadam-baqadam o'zlashtirib boradi. Har bir qadam bir necha qator o'quv materialidan tortib



bir necha betli materialgacha bo'lgan kattalikka ega bo'lishi mumkin. *Programmalashtirilgan ta'limning asosiy xususiyatlari:*

1. Tanlangan o'quv materialini alohida- alohida kichik qismlaiga ajratish.
2. Har bir qismni o'zlashtirishga qaratilgan muayyan ishlami izchil bajarishga doir ko'rsatmalar tizimini kiritish.
3. Har bir qismning o'zlashtirilishini tekshirish bo'yicha topshiriqlar berish.
4. O'quvchining bilimlari qanchalik to'g'riligini ko'rsatuvchi javoblami qayd etish. Demak, dasturlashtirilgan ta'lim o'zining shakliga ko'ra, o'quvchilaming ta'limiy materialni maxsus qayta ishlash bo'yicha mustaqil faoliyatning alohida turidir. Muammoli ta'lim metodlari o'quvchi oldida muammoli vaziyat yaratishga asoslangan metodlardir. **Muammoli vaziyat** — o'quvchi tanish bo'lgan ma'lumotlar va yangi ma'lumotlar (qaysiki ularni tushunish va tushuntirish uchun avvalgi bilimlarni qiladi) o'rtasidagi ziddiyat tufayli paydo boiuvchi vaziyat. Muammoli vaziyat belgilari: o'quvchiga notanish maiumotlaming mavjud boiishi; vazifalarni bajarish uchun talaba-o'quvchilarga beriladigan ko'rsatmalar; yuzaga kelgan bilim mashaqqatini hal qilishda ulaming shaxsiy manfaatdorligi. Muammoli o'qitishda qoilanadigan metodlar jumlasiga quyidagilar kiradi: ijodiy, qisman ijodiy yoki evristik, axborotni muammoli bayon qilish, axborotni muammoli boshlash orqali bayon qilish. Mazkur metodlar orqali o'quvchi oldiga muammoli vaziyatlar, hal etilishi kegak boigan vaziyatlar qo'yiladi. o'quvchi masalalarning yechimini bilmaydi, ammo o'zidagi avval egallangan bilim va ko'nikmalaiga asoslanib yechimni topishga tushadi.

Ta'limning interaktiv metodlari jumlasiga insonni faol fikrlashga undaydigan metodlar kiradi. Mazkur metodlar talim jarayonida o'quvchilarni ta'limning faol ishtirokchisiga aylantirishga xizmat qiladi. Ular yordamida tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'quvchi ta'limning boshqa ishtirokchilari bilan faol o'zaro munosabatga kirishadi. Natijada ta'lim tom ma'noda ijtimoiy hodisaga aylanadi. Amaliyotda keng qollanayotgan interaktiv metodlar quyidagilardan iborat: "*fikrlar hujumi*" metodi, "*tarmoqlar*" metodi, "*bumerang*" metodi, "*loyiha*" metodi, "*3x4*" metodi va boshqalar. Shuningdek, o'quvchilaming ta'lim jarayonidagi bilish faoliyatini faollashtirish maqsadida pedagogik o'yinlardan keng foydalilanildi. Pedagogik o'yinlar intellektual o'yinlar, ishchan o'yinlar, innovatsion o'yinlar, trening o'yinlari, ro'lli o'yinlami o'z ichiga oladi. Bu o'yinlar o'quvchilar bilimini kengaytiradi, ularda mustaqillik, muloqotchilik, irodaviy xususiyatlami tarbiyalaydi, ularning nutqi, xotirasi, tafakkuri, qobiliyatlarini rivojlantiradi. Pedagogik o'yinlar asosida o'quvchilarni o'quv faoliyatiga yo'llovchi usullar va vaziyatlami vujudga keltirish yotadi.

Shunday qilib, pedagogik jarayon pedagog tomonidan tashkil etilib, amalgalashirilsa ham, o'quvchi va talabalar uning faol ishtirokchisiga aylangandagina mazkur

jarayon samarador bolishi mumkin. Bunday natijaga erishish esa ko‘p jihatdan qanday metodlaming qo‘llanishiga bog‘liq boladi.

Yuqorida ko`rsatilga metodlar yordamisa o`qituvchi bolaning diqqatini o`ziga jalb qiliq qiziqarli tarzda yangi ko`nikmalarni o`quvchilarga tushintirib berishi mumkin. **I.P.Pavlov** ta`limotlaridan bizga ma`lumki diqqat qaratilganda miyamizda o`sha vaziyat ushun ajratilgan joylar aktivlashadi. Keyin esa miyaning aktivlashgan nuqtaloari ijodiy qobiliyatga ega bo`ladi. Bu metodlar orqali mana shu na`tijani olishimiz mumkin bo`ladi.

### Foydalaniman adabiyotlar

1.Oila psixologiyasi: Akad. litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘l. / G. B. Shoumarov, I. O. Haydarov, N. A. Sog‘inov va boshq.; G. B. Shoumarovning tahriri ostida; O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi. — T.: «Sharq», 2010. — 296 b.

2. Z. Nishanova, G. Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi.

O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. 160 b.